

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirdorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra viloyatda 2 631 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 601 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligining 22,8 % i) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 569 tasi (21,6 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 199 tasi (7,6 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 178 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga va 163 tasi (6,2%) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-sentabr holatiga ko'ra



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 119 848,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	119 848,6	109,1
Navoiy sh.	103 663,4	109,3
Zarafshon sh.	587,1	100,6
G'ozg'on sh.	136,0	106,2
tumanlar:		
Karmana	7 684,6	98,4
Konimex	589,2	101,5
Qiziltepa	1 114,7	103,4
Navbahor	836,6	103,5
Nurota	379,2	103,7
Tomdi	59,3	103,1
Uchquduq	328,4	103,6
Xatirchi	1 022,8	87,2


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 99 538,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,1 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 15 015,0 mlrd so'm (12,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 5 025,8 mlrd so'm (4,2 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 269,1 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2025-yilning yanvar-avgust oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 24,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 54,9 % ga oshgan), 28,7 tonna Yogurt (57,7 % ga oshgan), 1 512,0 ming tonna sement (7,9 % ga kamaygan) hamda 358,2 ming m³ azot (3,9 m³ ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar- avgust*	2025-yil yanvar- avgust
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	16,5	15,6	24,2
Tvorog va tvorodgan mahsulotlar, tonna	57,3	58,4	55,3
Yogurt, tonna	17,7	18,2	28,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futboldalar, ming d	1 593,7	2 138,6	1 741,0
Azot, ming m ³	70,7	91,3	358,2
Argon, ming m ³	118,8	876,1	1 245,6

Mochevina (karbamid), ming t azot	136,6	172,5	181,1
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	5,2	7,7	9,2
Portlandsement, ming t	1 979,3	1 641,5	1 512,0
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming t	59,2	217,0	218,7

*2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 82,3 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,0 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-avgust oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,8 % (8,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 85,8 % (83,8 %), quyi texnologiyali 7,3 % (7,3 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 74,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- avgust *	2024-yil yanvar- avgust *	2025-yil yanvar- avgust
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	7 141,6	7 330,9	5 425,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 062,3	3 088,2	2 832,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 4,0 m ga, oqava suvlarning shlamni 2,5 m ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 60,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- avgust *	2024-yil yanvar- avgust *	2025-yil yanvar- avgust
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	34,2	54,0	215,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	97,4	91,1	54,8
Oqava suvlarning shlamni, mlrd so'm	1,9	5,3	34,6

*2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 738,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishslash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogi'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdag'i tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv'i ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv'i materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruuhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruuhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyy-hajmi-qiyamatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

